

taqsimlanishini va yashirin iqtisodiyot ulushining qisqarishini ta'minlaydi; uchinchidan, narsalar interneti (IoT) sensorlari yordamida ekologik nazorat tizimining o'rnatilishi, respondentlarning 33,8 foizini tashvishga solayotgan ekologik risklarni 20-30 foizgacha minimallashtirishga xizmat qiladi; to'rtinchidan, oqimlarni Big Data vositasida prognozlash hududning tarkibiy sig'imini (carrying capacity) saqlagan holda, infratuzilmaviy yuklamani muvozanatlashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda ziyorat turizmini raqamli Smart model asosida modernizatsiya qilish – bu nafaqat texnologik innovatsiya, balki mahalliy aholi manfaatlarini ustuvor deb biluvchi inklyuziv taraqqiyot strategiyasidir. Mazkur modelni pilot loyiha sifatida Samarqand yoki Buxoro kabi yirik ziyorat markazlarida sinovdan o'tkazish, so'ngra respublika miqyosida replikatsiya (ommalashtirish) qilish ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yuqori samaradorlikni kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida: [2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son] // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. – 2023. – 12.09.2023-y., 06/23/158/0694-son.

2. SEGITTUR. Guide to Smart Tourism Destinations: Building the future of tourism. – Madrid: Ministry of Industry, Commerce and Tourism of Spain, 2023. – 120 p.

3. Vision 2030: Pilgrimage Experience Program [Elektron resurs] // Official Portal of Saudi Vision 2030. – URL: <https://www.vision2030.gov.sa/v2030/v2030-projects/pilgrimage-experience-program/>

4. I amsterdam City Card: Official smart tourism tool for Amsterdam [Elektron resurs]. – URL: <https://www.iamsterdam.com/en/see-and-do/city-card>

Nozima TOIROVA,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti doktoranti

O'ZBEKISTONDA TURIZM BOZORINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston turizm bozorining rivojlanish tendensiyalari, uning tarkibiy xususiyatlari hamda zamonaviy transformatsiya jarayonlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda turizm bozorining umumiy hajmi, xizmatlar savdo kanallarining o'zgarishi va turistlarning o'rtacha kunlik xarajatlari dinamikasi asosiy ko'rsatkichlar sifatida tanlab olindi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda turizm bozori pandemiyadan keyingi davrda tiklanish bosqichidan barqaror o'sish bosqichiga o'tgan. Ayniqsa, turizm xizmatlarining onlayn kanallar orqali sotilishi ulushining ortib borishi hamda turistlarning kunlik xarajatlari ko'payishi ushbu bozorning raqamli va iqtisodiy jihatdan chuqurlashib borayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, madaniy meros, tarixiy shaharlar, davlat siyosati va xizmatlar infratuzilmasi bozorning tarkibiy tayanch omillari sifatida namoyon bo'lmoqda. Tadqiqot yakunida O'zbekiston turizm bozorini yanada rivojlantirish uchun raqamli transformatsiya, xizmat sifati, hududiy diversifikatsiya va barqaror turizm tamoyillarini kuchaytirish bo'yicha xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: turizm bozori, turizm daromadlari, raqamlashtirish, onlayn savdo kanallari,

o'rtacha kunlik xarajat, barqaror turizm.

Аннотация. В статье анализируются тенденции развития узбекистанского туристического рынка, его структурные особенности и современные процессы трансформации. В качестве основных показателей выбраны общий объем туристического рынка, изменения в каналах продаж услуг и динамика среднесуточных расходов туристов. Анализ показывает, что в постпандемический период туристический рынок Узбекистана перешел из стадии восстановления в стадию стабильного роста. В частности, увеличение доли туристических услуг, продаваемых через онлайн-каналы, и рост среднесуточных расходов туристов свидетельствуют о цифровизации и экономической интродукции этого рынка. При этом в качестве структурных факторов поддержки рынка выступают культурное наследие, исторические города, государственная политика и инфраструктура услуг. В заключение исследования сделаны выводы об укреплении принципов цифровой трансформации, качества услуг, территориальной диверсификации и устойчивого туризма для дальнейшего развития узбекского туристического рынка.

Ключевые слова: туристический рынок, доходы от туризма, цифровизация, онлайн-каналы продаж, среднесуточные расходы, устойчивый туризм.

Abstract. The article analyzes the development trends of the Uzbek tourism market, its structural features and modern transformation processes. The study selected the total volume of the tourism market, changes in service sales channels and the dynamics of average daily spending by tourists as the main indicators. The analysis shows that the tourism market in Uzbekistan has moved from the recovery stage to a stage of stable growth in the post-pandemic period. In particular, the increasing share of tourism services sold through online channels and the increase in daily spending by tourists indicate the digital and economic deepening of this market. At the same time, cultural heritage, historical cities, state policy and service infrastructure are emerging as structural supporting factors of the market. At the end of the study, conclusions were drawn on strengthening the principles of digital transformation, service quality, territorial diversification and sustainable tourism for the further development of the Uzbek tourism market.

Keywords: tourism market, tourism revenues, digitalization, online sales channels, average daily spend, sustainable tourism.

Bugungi kunda turizm jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan xizmat tarmoqlaridan biri bo'lib, iqtisodiy o'sish, bandlik, eksport tushumlari va hududiy rivojlanishga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbekiston uchun ham turizm strategik sohalardan biriga aylanib, milliy iqtisodiyot tarkibida xizmatlar ulushini kengaytirish, hududlarni rivojlantirish va mamlakatning xalqaro imijini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonning turizm salohiyati, avvalo, uning boy tarixiy-madaniy merosi, Buyuk ipak yo'li bo'ylab joylashgan shaharlari, tabiiy resurslari va Markaziy Osiyodagi qulay geografik o'rni bilan belgilanadi. Samarqand, Buxoro va Xiva singari tarixiy markazlar nafaqat mamlakat turizmining asosiy tayanch hududlari, balki xalqaro turistlar oqimini shakllantiruvchi asosiy destinatsiyalar hisoblanadi [3].

So'nggi yillarda mamlakatda vizani liberallashtirish, transport aloqalarini kengaytirish, mehmonxona infratuzilmasini rivojlantirish, tarixiy-madaniy obyektlarni faol targ'ib qilish va turizm xizmatlarini raqamlashtirish yo'nalishida qator islohotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, pandemiyadan keyingi davr turizm bozorining yangi rivojlanish bosqichini boshlab berdi. 2020-yildagi keskin pasayishdan so'ng keyingi yillarda turizm xizmatlari bozorida tiklanish va o'sish kuzatildi [1].

Mazkur maqolaning maqsadi O‘zbekiston turizm bozorining rivojlanish tendensiyalari va tarkibiy xususiyatlarini zamonaviy statistik ma’lumotlar hamda ilmiy manbalar asosida tahlil qilishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Turizmning iqtisodiy o‘shishga ta’siri masalasi xalqaro va milliy ilmiy adabiyotlarda keng o‘rganilgan. Xususan, O‘zbekiston iqtisodiyoti misolida olib borilgan tadqiqotlarda turizm yalpi ichki mahsulot o‘shishi, bandlik, xizmatlar eksporti va infratuzilma rivojiga ta’sir etuvchi omil sifatida baholangan. O.Astanakulov va M.Sokhibovalar tadqiqotida 2016–2024-yillar ma’lumotlari asosida turizm infratuzilmasi, turizmda bandlik, ichki va xalqaro turistlar oqimi hamda eksport ko‘rsatkichlari iqtisodiy o‘shish bilan uzviy bog‘liqligi asoslab berilgan [2].

A.Eshtayev va N.Bobobekovalar xalqaro turizm bozorining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilib, O‘zbekistonning xalqaro turizm bozoridagi ishtirokini baholagan. Mualliflar turizmni rivojlantiruvchi asosiy omillar sifatida raqamlashtirish, transport infratuzilmasining takomillashuvi, viza va bojxona tartiblarining soddalashuvi hamda turist xarajatlarining oshishini ko‘rsatadi [1].

Karimov va hammualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqotda esa O‘zbekistonning Silk Road shaharlari misolida turizmning iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va madaniy jihatlari baholangan. Tadqiqot natijalari mamlakat turizmi jadal o‘sayotgan bo‘lsa-da, ayrim hududlarda xizmatlar sifati, raqamli xizmatlar, kadrlar tayyorlash va madaniy merosni muhofaza qilish masalalari hali ham dolzarb ekanini ko‘rsatadi [3].

Mahalliy amaliy manbalarda O‘zbekiston turizm bozorining salohiyati va muammolari ham yoritilgan. Jumladan, turizm salohiyatining shakllanishi madaniy meros, tabiiy resurslar, geografik joylashuv va davlat siyosati bilan izohlanadi, asosiy muammolar qatoriga esa infratuzilma nomutanosibli, xizmat sifati, malakali kadrlar yetishmasligi, mavsumiylik va xalqaro marketing cheklovlari kiritiladi [5].

Shunday qilib, mavjud ilmiy adabiyotlar O‘zbekiston turizm bozorini iqtisodiy o‘shish, xalqaro integratsiya, raqamlashtirish va barqaror rivojlanish bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Biroq bozorning tarkibiy tuzilishi, ayniqsa daromad dinamikasi, savdo kanallari transformatsiyasi va turist xarajatlari xulqi birgalikda kam yoritilgan. Mazkur maqola aynan shu jihatlarni umumlashtirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Tadqiqot metodologiyasi Maqolada qiyosiy tahlil, statistik tahlil, mantiqiy umumlashtirish va tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi. Empirik baza sifatida O‘zbekiston travel and tourism bozori bo‘yicha Statista Market Insights ma’lumotlari hamda turizmning iqtisodiy o‘shishga ta’siri va barqaror rivojlanishiga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar tanlab olindi [2]–[4].

Tadqiqot doirasida uchta asosiy statistik ko‘rsatkich tahlil markaziga qo‘yildi:

- turizm bozorining umumiy daromadi;
- turizm xizmatlari savdo kanallarining tuzilishi;
- turistlarning o‘rtacha kunlik xarajatlari.

Mazkur ko‘rsatkichlar maqola hajmini ixcham saqlash bilan birga, bozorning hajmi, transformatsiyasi va iste’mol xulqidagi o‘zgarishlarni bir vaqtning o‘zida yoritish imkonini beradi [4].

Tahlil va natijalar

1. *O‘zbekiston turizm bozorining daromad dinamikasi.* O‘zbekiston turizm bozorining rivojlanish tendensiyalarini baholashda, avvalo, ushbu bozorning umumiy daromad hajmidagi o‘zgarishlarga e’tibor qaratish zarur. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, 2017–2019-yillarda turizm bozori daromadlari barqaror o‘shish trayektoriyasida bo‘lgan. Biroq 2020-yilda pandemiya oqibatida bozor hajmi keskin qisqargan. Keyingi yillarda esa tiklanish jarayoni kuzatilib, 2022-yildan boshlab daromadlar yana o‘shish bosqichiga kirgan. Bu holat turizmning tashqi shoklarga sezgir, biroq tiklanish salohiyati yuqori bo‘lgan soha ekanini ko‘rsatadi. 1-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, 2017–2025-yillarda O‘zbekiston turizm bozorida daromad hajmi, turistlarning o‘rtacha kunlik xarajatlari va onlayn savdo ulushi izchil o‘sgan.

1-jadval

O‘zbekiston turizm bozorining asosiy rivojlanish ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	2017	2020	2023	2025
Turizm bozori daromadi, mln. AQSh dollari	297.78	154.23	405.48	526.99
Turistning o‘rtacha kunlik xarajati, AQSh dollari	7.42	12.47	17.38	20.66
Onlayn savdo kanali ulushi, %	51	61	71	79

Manba: Statista Market Insights asosida muallif tomonidan tuzildi.


Turizm bozoridagi tiklanish O‘zbekiston iqtisodiyotida xizmatlar sektorining faollashuvi, turizm infratuzilmasining kengayishi va davlat tomonidan amalga oshirilgan qo‘llab-quvvatlovchi chora-tadbirlar bilan izohlanadi. Ilmiy tadqiqotlarda turizm infratuzilmasi, bandlik, ichki va tashqi turistlar oqimi hamda turizm eksporti yalpi ichki mahsulot o‘shishi bilan ijobiy bog‘liqligi qayd etilgan [2].

Shuningdek, daromad dinamikasi O‘zbekiston turizm bozorida mehmonxona xizmatlari, paketli sayohatlar va joylashtirish bilan bog‘liq xizmatlar yetakchi segmentlar sifatida shakllanayotganini ko‘rsatadi. Bu esa bozor tarkibi tobora diversifikatsiyalanayotganini, ya’ni turizm xizmatlari oddiy safar tashkil etishdan ko‘ra ko‘proq kompleks xizmatlar tizimiga aylanayotganini anglatadi [4].

2. *Turizm xizmatlari savdo kanallarining raqamli transformatsiyasi.* O‘zbekiston turizm bozorining zamonaviy rivojlanish tendensiyalaridan biri – xizmatlar savdo kanallarining raqamli tus olayotganidir. So‘nggi yillarda turizm xizmatlarini onlayn bron qilish, tanlash va xarid qilish ulushi izchil oshib bormoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, onlayn kanalning ulushi yildan yilga ko‘payib, oflayn kanallarning nisbiy ulushi qisqarib bormoqda. Bu jarayon turizm bozorida raqamlashtirishning chuqurlashuvi va iste’molchi xulq-atvorining o‘zgarishi bilan bog‘liq.

1-rasmdan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekistonda turizm xizmatlarini sotishda onlayn kanallarning ulushi 2017-yildagi 51 foizdan 2025-yilda 79 foizga yetgan, bu esa bozorda raqamli transformatsiya jarayonlari kuchayganini anglatadi

Ilmiy manbalarda ham turizmni raqamlashtirish zamonaviy rivojlanishning eng muhim omillaridan biri sifatida baholanadi. Xususan, xalqaro turizm bozori tendensiyalarini o‘rgangan mualliflar turizm sohasida raqamlashtirish, viza va bojxona tartiblarining soddalashuvi hamda transport infratuzilmasining rivojlanishi bozor raqobatbardoshligini oshirayotganini ta’kidlaydi [1].



1-rasm. O‘zbekiston turizm xizmatlari savdo kanallari tarkibining o‘zgarishi²¹⁶

Barqaror turizm bo‘yicha tadqiqotlarda esa O‘zbekistonda turizmning jadal o‘sishi bilan birga raqamli xizmatlar yetishmovchiligi ham muammo sifatida qayd etiladi. Shu bois raqamli xizmatlarni kengaytirish, onlayn platformalarni rivojlantirish va turistlar uchun qulay elektron infratuzilmani kuchaytirish bozorning keyingi o‘sishi uchun zarur shartlardan biri hisoblanadi [3], [5].

Demak, savdo kanallarining onlayn shaklga o‘tishi O‘zbekiston turizm bozorining muhim tarkibiy xususiyatlaridan biri bo‘lib, u nafaqat bozor hajmini kengaytiradi, balki xizmatlar sifati, tezkorligi va shaffofligini ham oshiradi.

3. Turistlarning o‘rtacha kunlik xarajatlari va bozor samaradorligi. Turizm bozorining rivojlanishini faqat turistlar soni orqali emas, balki bir turistdan olinadigan iqtisodiy samara orqali ham baholash muhimdir. Shu jihatdan turistlarning o‘rtacha kunlik xarajatlari ko‘rsatkichi bozor samaradorligini ifodalovchi asosiy indikatorlardan biri hisoblanadi. Tahlillar turist boshiga kunlik xarajatlarning oshib borayotganini ko‘rsatadi, bu esa O‘zbekiston turizm bozorida nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatdan ham o‘shirish mavjudligini anglatadi [4].

Xalqaro tadqiqotlarda turistlarning uzoqroq qolishi va ko‘proq mablag‘ sarflashi turizm tushumlarining tiklanishi va o‘shirishining asosiy omillaridan biri sifatida ko‘rsatilgan [1]. Shu bilan birga, O‘zbekiston bo‘yicha barqaror turizm tadqiqotida xalqaro turistlarning o‘rtacha qolish muddati taxminan 4 kun, turist boshiga o‘rtacha xarajat esa 391 AQSh dollarini tashkil etishi qayd etilgan [3].

Bu ko‘rsatkichlar shuni anglatadiki, O‘zbekiston turizm bozori endi faqat turistlar oqimini ko‘paytirishga emas, balki turistning mamlakat ichida sarflaydigan mablag‘ hajmini oshirishga ham yo‘naltirilishi kerak. Buning uchun xizmatlar paketini kengaytirish, gastronomik, madaniy, ekologik va ziyorat turizmi xizmatlarini chuqurlashtirish muhimdir. Ayniqsa, tarixiy shaharlarda turizm xizmatlarini kompleks shaklda taklif etish turistning qolish muddatini va xarajat hajmini oshirishga xizmat qiladi.

²¹⁶Statista Market insights

4. *O‘zbekiston turizm bozorining tarkibiy xususiyatlari.* Tahlillar O‘zbekiston turizm bozorining bir necha muhim tarkibiy xususiyatlarini ko‘rsatadi. Birinchidan, ushbu bozorning asosiy tayanchi tarixiy-madaniy turizm hisoblanadi. Samarqand, Buxoro va Xiva singari shaharlar mamlakat turizmining markaziy nuqtalari bo‘lib, xalqaro turistlar oqimining sezilarli qismini shakllantiradi.

Ikkinchidan, bozorda davlat siyosatining roli yuqori. Turizmni rivojlantirish bo‘yicha strategik qarorlar, infratuzilmani yaxshilash, xalqaro ko‘rgazmalarda ishtirok etish va milliy turizm brendini ilgari surish bozor rivojiga bevosita ta‘sir ko‘rsatmoqd.

Uchinchidan, O‘zbekiston turizm bozori hali ham hududiy nomutanosiblik bilan tavsiflanadi. Yirik turistik shaharlarda infratuzilma va xizmatlar rivojlangan bo‘lsa-da, ayrim chekka hududlarda turizm xizmatlari, logistika va servis sifati yetarli darajada shakllanmagan [5].

To‘rtinchidan, bozorning zamonaviy xususiyati sifatida raqamlashtirish va barqarorlik omillari bir-biri bilan bog‘liq holda namoyon bo‘lmoqda. Ya‘ni kelgusida O‘zbekiston turizm bozorining raqobatbardoshligi nafaqat turistlar soni, balki xizmatlar sifati, onlayn qulaylik, ekologik yondashuv va madaniy merosni asrab-avaylash darajasi bilan ham belgilanadi [3].

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston turizm bozori so‘nggi yillarda sezilarli tarkibiy va miqdoriy o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, pandemiya davridagi pasayishdan so‘ng bozor barqaror tiklanish va o‘shish bosqichiga kirgan. Bozor daromadlarining ortishi, onlayn savdo kanallarining kengayishi va turistlarning kunlik xarajatlari ko‘payishi bu jarayonning asosiy belgilaridi.

O‘zbekiston turizm bozorining tarkibiy xususiyatlari uning tarixiy-madaniy merosga tayanuvchi modeli, davlat siyosatining faol ishtiroki, raqamli transformatsiya jarayoni hamda barqaror rivojlanish talablari bilan belgilanadi. Shu bilan birga, infratuzilma nomutanosibligi, xizmat sifati, malakali kadrlar yetishmasligi va ayrim hududlarda raqamli xizmatlarning sustligi kabi muammolar mavjud.

Shu asosda, O‘zbekiston turizm bozorini yanada rivojlantirish uchun quyidagi ustuvor yo‘nalishlarga e‘tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- turizm xizmatlarining raqamli infratuzilmasini kengaytirish;
- tarixiy shaharlardan tashqari hududlarda ham turizm klasterlarini rivojlantirish;
- turistlarning kunlik xarajatlari va qolish muddatini oshiruvchi kompleks xizmatlarni joriy etish;
- barqaror turizm tamoyillarini xizmatlar sifati va madaniy merosni asrash bilan uyg‘unlashtirish.

Shunday qilib, O‘zbekiston turizm bozorining kelgusi rivoji raqamlashtirish, diversifikatsiya va sifatli xizmatlar asosida ta‘minlanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- [1] Eshtayev, A.A., & Bobobekova, N.B. (2024). *Xalqaro turizm bozorining*

rivojlanish tendensiyalari va unda O‘zbekistonning ishtiroki. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 2-son, 764–768.

[2] Astanakulov, O., & Sokhibova, M. (2025). *Assessing the Contribution of Tourism to Uzbekistan’s Economic Growth: Analysis of Influencing Factors*. *Economics, Finance and Management Review*, 4(24), 4–16.

[3] Karimov, M., Okmullaev, R., Marty, P., & Saidmamatov, O. (2025). *Tourism Sustainability in Uzbekistan: Challenges and Opportunities Along the Silk Road*. *Economies*, 13(9), 250.

[4] Statista Market Insights. (2025). *Travel and Tourism in Uzbekistan: Revenue, Sales Channels, Average Daily Expenditure* [Statistik ma’lumotlar to‘plami].

[5] Bakhodirov, B.B. (2026). *Prospects and Problems of Tourism Capacity in Uzbekistan*. *London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation*, 590–591.

Shohruh MARDONOV,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti o‘qituvchisi,
Shaxrizoda JO‘RAYEVA,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti talabasi

O‘ZBEKISTONDA TURISTIK RESURSLAR RIVOJLANISHINING TENDENSIYALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada 2020–2025-yillar oralig‘ida O‘zbekistonga tashrif buyurgan turistik safarlar va turistik resurslar bog‘liqligi tahlil qilingan. Tadqiqotda korrelatsiya va regressiya kabi statistik usullar yordamida turistik resurslar rivojlanishining turistlar oqimiga ta’siri o‘rganilgan. Tahlil natijalari asosida turistlar sonini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: turistik resurs salohiyati, sayyohlik oqimi, sayyohlik safarlari, korrelyatsion tahlil, regressiya tahlili, turizm rivojlanishi.

Аннотация. В данной статье проанализирована взаимосвязь между туристическими поездками и туристическими ресурсами в Узбекистане за период 2020–2025 годов. В исследовании с использованием статистических методов, таких как корреляционный и регрессионный анализ, изучено влияние развития туристических ресурсов на поток туристов. На основе результатов анализа представлены практические рекомендации, направленные на увеличение числа туристов.

Ключевые слова: потенциал туристических ресурсов, туристический поток, туристические поездки, корреляционный анализ, регрессионный анализ, развитие туризма.

Abstract. This article analyzes the relationship between tourist trips and tourism resources in Uzbekistan over the period 2020–2025. The study employs statistical methods such as correlation and regression analysis to examine the impact of tourism resource development on tourist flows. Based on the results, practical recommendations aimed at increasing the number of tourists have been provided.

Keywords: tourism resource potential, tourist flow, tourist trips, correlation analysis, regression analysis, tourism development.